

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish 3-kurs talabasi

**Ikromov Azizbek Akmal o'g'li.**

**Tayanch sozlar:** folklor, folklorshunoslik, Uilyam Toms, Mahmud Koshg'ariy “ Devonu lug'otit turk”, H.Zarifov.

**Annotatsiya:** Maqolada folklor san'ati tarixi, uning ildizlari, asosiy mezonlari va bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligi yoritilgan.

Folklor (inglizchadan *folk* — „xalq“, *lore* — „bilim“, „donolik“) — xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Thoms olib kirgan. 1880—1990-yillarda „folklor“ termini ko'plab mamlatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan. O'zbekistonda dastlab, „og'zaki adabiyot“, „og'iz adabiyoti“ atamalari qo'llangan. „Folklor“ termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning „O'zbek folklori“ xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi

"Folklor" atamasi "xalq donoligi" degan ma'noni bildirib, xalq tomonidan yaratilgan har qanday san'at namunalari taalluqlidir. Musiqada xalq kuylari, xoreografiyada xalq raqslari, me'morchilikda qurilish-ta'mirlash, pardozlash, dekor, dizayn kabi yo'nalishlarga oid bilim va ko'nikmalar hamda bevosita asarlarning o'zi, og'zaki ijodda xalq doston va ertaklari, maqol, topishmoq, lof, askiya va latifalar folklor namunalari hisoblanadi.

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, «xalq donoligi» degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni «folklor» deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.

Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og'zaki adabiyot”, “xalq og'zaki ijodi” deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarifov (1934-35-yillar) tomonidan qo'lanilgan “folklor”, “O'zbek folklori” sifatida keng ommalashdi. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ko'plab janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati namunalari bo'lib, xalq hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o'zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodlarga o'tib keladi. O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olinishi tarixi haqida so'z yuritganda, X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo'shiq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, “Devonu lug'otit turk” asariga kiritganligini eslash kerak bo'ladi. Shuningdek, maqol

va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini o'rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini

“Qissasi Rabg‘uziy”ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy, o‘zbek xalq she‘riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug‘ o‘zbek shoiri to‘g‘risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o‘zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlari, maqol va hikmatli so‘zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, o‘zi tuzgan lug‘atda xalq qo‘shiqlaridan misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy-o‘zbek folklori asarlarining ilk to‘plovchilari edilar.

Folklor asarining dunyoga kelish jarayoni o'zining tub mazmuni bilan ajralib turadi. U ham badiiy asar va ma'lum darajada ham ommaviy, ham individual ijodiy jarayondir. Har qanday badiiy asar konkret shaxsning hayotda ko'rgan-bilganlari, uning dunyoqarashi, tasavvuri, ehtirosi, his-hayajonlari harorati-yu qudratining uzviy birikmasidan tashkil topib, kamolotga yetib, o'ziga yarasha so'z, ovoz va boshqa jihatlari bilan dunyoga keladigan tafakkur va tasavvur mahsulidir. Folklor asarida ham ushbu holat mavjud. Chunki unda asarni yaratish mantig'i, xohishi, ijodning barcha jarayoni bilan bog'liqligi mujassam. Zero, folklor asarini davrimiz, tinglovchi yoki tomoshabinlarimiz talabiga to'la-to'kis javob beradigan badiiy asarlar sifatida qabul qilamiz.

Folklor san'ati katta tarixiy yo'lni bosib o'tdi va turli yo'nalishlarda taraqqiy topdi:

1. Madaniyatning folklor qatlami - ommaviy xalq ijodiyoti (so'z, musiqa, o'yin-raqs, tomosha va amaliy san'at), uning xalq urf-odatlarini, marosimlari va bayramlari

bilan bog'liqligi, ularning yaratilishi, ijro etilishi va amalga oshirilishi jihatdan omma (jamo)ning ishtiroki bilan yuzaga chiqadigan badiiy iqtidor namunasidir. U o'z navbatida autentik folklor tarzida ifodalanadi;

2. Madaniyatning badiiy havaskorlik qatlami XX asrda shakllangan. Xalq va havaskorlik badiiy-ijrochilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, og'zaki-yozma an'analari asosida (folklor-etnografik, oilaviy, cholg'u, dostonchilik, maqom ansambllari, folklor san'ati va hunarmandchilik bo'yicha to'garaklar, turli studiyalar).

Folklor san'atining asosiy mezonlari:

- talqin masalasi (malaka, tajriba, mahorat);  
- ijro saviyasi (eshitish qobiliyati, eslash, ovozning miqdori, saboq va bilim, tabiiy iste'dod);

- ijrochilik mohiyati (ichki dunyosi, dunyoqarashi va qobiliyati, asar ruhi, obrazi, so'z va kuy uyg'unligi.);

- ijro tarkibi (har bir tarmoqning uslub-usullaridan kelib chiqadi);

- ijro repertuari (an'anaga bo'ysunish va rivojlantirish, o'quv darajasi, xonishdagi saviya, bilim miqdori, lokallik (mahalliy) mezon);

- ijro madaniyati (saviya, jamiyatdagi o'rni, mavqei, munosabat (ayniqsa, tinglovchiga), sahna madaniyati (yurish-turishi, kiyinishi, ijrosi), did, repertuar

tanlash, matn va talaffuz, so'z va kuyning uyg'unlashgan holda mutanosib talqin etilishi (uslub, usul, mahorat, an'ana).

Folklor inson ma'naviyatini, dunyoqarashini har tomonlama yuksaltirishda juda katta ahamiyatga ega. Biz bolaligimizdan eshitib kelgan allalar, latifalar, ertaklar, loflar, miflar, topishmoqlar, qo'shiqlar va tez aytishlar nafaqat bola tilining shakllanishiga yordam beradi, balki, uni ona tilimizning eng nozik jihatlari, go'zalliklari bilan tanishtiradi. Faqat yuksak saviyadagi

asarlarga ana shunday fazilarlarni va go'zalliklarni namoyish qilib bera oladi. Bolaning ham ruhan, ham jismonan ulg'ayishida xalq o'yinlari muhim omillardan biri hisoblanadi. Ammo bugungi davrda yoshlarning global jamiyatda ulg'ayib borgani sari, ularning qadim an'ana va qadriyatlardan begona bo'la boshlashi kuzatilmoqda. Bugungi global jamiyatdagi ommaviy madaniyat yoshlarimizga har tomonlama ta'sir qilayotgan va ularning qadim an'ana va qadriyatlardan begonalashishiga sababchi bo'layotgan omillar sirasiga kiradi. Bularning barchasi esa yoshlar ma'naviyatining yuksalishiga emas, aksiga xizmat qilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to oliyo'quv yurtida til o'qitishda, o'rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi yosh avlodni ma'naviyatini yuksaltirishda, komil inson qilib tarbiyalashda bir qancha metodlar va usullar ishlab chiqilgan. Biroq bu metod va usullar samarali bo'lishi uchun millatning buyukligi va tirikligidan dalolat beruvchi folklor na'munalariga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov "O'zbek folklori". – Toshkent 2020.
2. Introduction to Folklore. London, 2008.
3. M. Jo'rayev, J. Eshonqulov "Folklorshunoslikka kirish". – Toshkent -2017.
4. Zarifov H. "Devonu lug'otit turk" leksikasining o'zbek folklorida ko'rinishiga doir (tezislar) // Po'lkan shoir. – Toshkent: Fan, 1976